



ICHKI ISHLAR ORGAN XODIMLARNI TARBIYALASH ORQALI VATANPARVARLIKNI SHAKILLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ubaydullaev Sherzod Muzaffarovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy
fanlar kafedrası katta o'qituvchisi, podpolkovnik
+99890 956-95-93

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21023358>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 27-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 29-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Vatanparvarlik, akseologiya,
hissiy bog'liqlik, muhabbat,
ma'naviy- axloqiy, genezis, oliy
ijtimoiy qadriyat, korrupsiya,
ma'naviy-ma'rifiy, global,
psixologik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Ichki ishlar organlari (IIO) xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunda shunchaki ma'naviy tadbir emas, balki davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikning strategik ustuvor yo'nalishi hisoblanishini, ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi o'rtasida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari tadqiq etilgan. Global o'zgarishlar va axborot xurujlari sharoitida xodimlarning xizmat intizomi va Vatanga bo'lgan sadoqatini mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida IIO xodimlarini tarbiyalashning zamonaviy usullari, milliy qadriyatlarning xizmat faoliyatidagi o'рни hamda xodimlarning psixologik barqarorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Hamda muxtaram birinchi prezidentimizning ilmiy asarlari va hozirgi kungacha O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Prezidentimizning qarorlari, farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlaridan foydalangan holda olingan xulosalar mavjud.

Vatanparvarlik — bu shunchaki o'z tug'ilib o'sgan joyini yaxshi ko'rish emas, balki o'z xalqi va davlatining manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, uning o'tmishi bilan faxrlanish va kelajagi uchun mas'uliyatni his qilishdir. Ichki ishlar organi xodimi uchun vatanparvarlik tushunchasini uchta asosiy ustun orqali tushuntirish mumkin:

1. Hissiy bog'liqlik (Muhabbat) bu- o'z yurtining tuprog'ini, tilini, madaniyatini va qadriyatlarini qadrlashdir. Inson o'z uyini va oilasini qanday himoya qilsa, Vatanni ham shunday ichki ehtiyoj bilan yaxshi ko'radi. IIO xodimi uchun bu — har bir fuqaroga o'z yaqinidek qarash va ularning tinchligini ko'z qorachig'idek asrashdir. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyatida hissiy bog'liqlik (Vatanga bo'lgan muhabbat) shunchaki subyektiv tuyg'u emas, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy yo'naltirilganligini belgilovchi fundamental qadriyat hisoblanadi. Ilmiy tilda hissiy bog'liqlik — bu xodimning o'zini muayyan bir milliy-madaniy makonning uzviy qismi sifatida anglashidir. Bunda Genezisidagi Xodim o'z ajdodlarining boy tarixi, madaniy merosi va davlat personajlari (masalan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi) bilan o'zini identifikatsiya qiladi. Buning natijasida xodimda "Bu mening tuprog'im, bu mening xalqim"

degan barqaror kognitiv va emotsional munosabatni shakllantiradi. Bu tuyg'u xizmat vazifasini mexanik ijro etishdan shaxsiy mas'uliyat bosqichiga olib chiqadi. Vatanparvarlikning hissiy asosi akseologiya (qadriyatlar haqidagi fan) nuqtayi nazaridan "oliy ijtimoiy qadriyat" sifatida tavsiflanadi. Xizmat davomida yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarda, moddiy rag'bat yetarli bo'lmagan yoki hayotga xavf tug'ilgan daqiqalarda aynan Vatanga bo'lgan hissiy bog'liqlik xodimning irodasini boshqaruvchi asosiy motivatorga aylanadi. Vataniga nisbatan yuksak muhabbat tuyg'usi shakllangan xodimda yot g'oyalarga, chetdan bo'ladigan mafkuraviy tazyiqlarga va destruktiv oqimlarga nisbatan kuchli psixologik immunitet¹ paydo bo'ladi. IIO xodimi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda hissiy bog'liqlik "empatiya" (hisdashlik) tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Buning natijasida: Xalqparvarlik subyekti sifatida-Xodim o'z xalqini sevishi orqali har bir fuqaroning dardu tashvishini o'ziniki kabi qabul qiladi. Bu "hissiy rezonans" korrupsiya, adolatsizlik va fuqarolarga nisbatan bepisandlikning oldini oluvchi ichki axloqiy filtr vazifasini o'taydi; Xizmat motivatsiyasi sifatida esa- Muhabbat bu erda — xizmat burchini shunchaki majburiyat sifatida emas, balki o'zi mansub bo'lgan jamiyatga begaraz yordam berish ehtiyoji sifatida talqin etiladi.

2. Amaliy harakat (Sadoqat)- bunda Vatanparvarlik quruq gap bilan emas, balki bajarilgan ish bilan o'lchanadi va vatanniga, prezidentiga, xalqiga qilgan qasamyoddi² orqali sadokatini xar qanday sharoitdan, hatto o'z jonini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham bajarishi lozim. Chunki xodim yurt tinchiligini, fuqorolarning xuquq erkinliklari va ularning mulkini qo'rqlashga qaratilgan vazifalarni sidqidildan bajarmog'i kerak.

3. Mas'uliyat (Fidoyilik)- Haqiqiy vatanparvar "Vatan men uchun nima qildi?" deb emas, balki "Men Vatan uchun nima qildim?"³ degan savol bilan yashaydi. Ichki ishlar organlari tizimida mas'uliyat va fidoyilik tushunchalari xodimning xizmat faoliyatidagi samaradorlikni belgilovchi eng yuqori ma'naviy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ular shunchaki intizomiy talablar emas, balki shaxsning davlat va jamiyat oldidagi o'z-o'zini anglash shaklidir. Mas'uliyat xodimning o'z harakati yoki harakatsizligi uchun huquqiy va ma'naviy javobgarligini anglab yetishidir. Bu davlat tomonidan berilgan vakolatni "ijobat qilish majburiyati" sifatida talqin etiladi.

Globallashuv jarayonlari axborot oqimining tezlashishi va madaniyatlarning integratsiyalashuvini ta'minlash bilan birga, yosh mutaxassislar dunyoqarashiga turlicha ma'naviy tahdidlarni ham olib kirmoqda. Bugungi kunda yosh xodimlar ongi uchun kurash "axborot xurujlari" shaklida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Globallashuv sharoitida yosh xodimlarni yot g'oyalardan himoya qilish masalasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan huquqiy-mexanizm jihatidan mustahkamlab qo'yilgan. Shu jumladan "2022–2026-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy darajasini oshirish va xizmat madaniyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5039-sonli qarori/ II-bobi

² O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407 sonli qonuning VI-bobi/ 27-moddasi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-sonli qarori bilan tasdiqlangan
***"Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi"/ II-bob/

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"⁴ Farmoniga muvofiq ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash borasida muhim vazifalar belgilab bergan. Mazkur qarorga muvofiq, Ma'naviy immunitet endilikda shunchaki tarbiya usuli emas, balki "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari"⁵ tamoyili asosida davlatning mafkuraviy xavfsizligini ta'minlovchi strategik resurs sifatida qaralmoqda. Yosh xodimlar ongida "ma'rifatli jamiyat" g'oyasini shakllantirish — yot g'oyalarga qarshi eng samarali profilaktikadir.

"Milliy qadriyatlarni inkor etish va iste'molchilik madaniyatining ustuvorlashuvi" global jarayonlarning salbiy asorati sifatida zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Insonning ma'naviy intilishlari susaygan joyda, uning o'rnini sun'iy ehtiyojlar egallaydi. Yosh xodimlarda "mening qiymatim — mening brendimda yoki gadjetimda" degan yanglish tasavvurning shakllanishi ularning ichki ma'naviy o'sishini to'xtatib qo'yadi. Yot g'oyalar milliy an'analarni "eskirgan", "taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi" omillar sifatida ko'rsatishga intiladi va bun jarayonda "madaniy gegemoniya" nazariyasiga asoslanadi. Bunda yoshlarning o'z ildizlaridan uzilishi ularni tashqi mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan himoyasiz va boshqariluvchan qilib qo'yadi. Oila muqaddasligi, kattalarga hurmat kabi qadriyatlar inkor etilishi ijtimoiy hamjihatlikni yemiruvchi asosiy omildir. Jamoaviy manfaatlardan ko'ra shaxsiy lazzatni ustun qo'yish mehnat jamoalarida korporativ sadoqatni pasaytiradi. Yosh xodim o'z ishiga faqat daromad manbai deb qaraydi, kasbiy mas'uliyat va fidoyilik kabi tushunchalar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Yoshlarda o'z vataniga, milliy an'alariga nisbatan befarqlik hissini uyg'otishga urinish.

Asosiy qism.

Ichki ishlar organlari (IIO) tizimida vatanparvarlik va korrupsiyaga qarshi kurash masalasi bevosita davlat xavfsizligi va xalqning davlatga bo'lgan ishonchi bilan bog'liqdir. Ushbu tizimda xizmat qilayotgan xodimlar uchun vatanparvarlik — bu shunchaki tushuncha emas, balki kasbiy qasamyodga sadoqat va ma'naviy burch darajasidagi strategik vositadir.

Shu joyda *Korrupsiya o'zi nima degan savol tug'iladi?*

Korrupsiya — bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yoxud o'zga shaxslarning manfaatlari ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf ko'rish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishidir. Korrupsiya lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "buzilish", "aynish" yoki "pora evaziga sotilish" degan ma'nolarni anglatadi. Korrupsiya va vatanparvarlik tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik odatda teskari proporsional hisoblanadi. Ya'ni, korrupsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, haqiqiy vatanparvarlik tamoyillari shunchalik zaiflashgan bo'ladi. Buni bir necha muhim jihatlardan biri Korrupsioner o'z vatan resurslarini (byudjetni, yerlarni, boyliklarni) o'zining shaxsiy boyish manbai deb ko'radi. Bu mohiyatan o'z vatanini talon-toroj qilish bilan barobardir. Korrupsiya tufayli yo'llarimiz sifatsiz quriladi, maktablar va shifoxonalarga yetarli jihozlar bilan ta'minlanmaydi. Vatanini sevgan inson o'z xalqining bunday sharoitda yashashiga sababchi bo'lishni xohlamaydi. Agar mudofaa yoki huquq-tartibot tizimida korrupsiya bo'lsa, bu davlat mustaqilligiga tahdid soladi. Shaxsiy foyda uchun davlat sirini sotish yoki qonunni buzishga ko'z yumish — vatanparvarlikka zid bo'lgan eng oliy darajadagi xiyonatdir.

⁴ O'zbekiston Respublikasi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni 28.01.2022.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" /I-bob/ 11-15betlar/ 2020-yil O'ZBEKNEW nashriyoti.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (IIV) tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan idoraviy qarorlar va chora-tadbirlar asosan tizimni shaffoflashtirish, xodimlarning ma'naviy qiyofasini yaxshilash va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan. Prezidentning PQ-2996-sonli qarorga⁶ ko'ra Ichki ishlar vazirlik tizimida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikning ilmiy asosi "Intizomiy nizamnoma" va "Odob-axloq qoidalari" bilan mustahkamlangan. Vatanparvarlik hissi yuqori bo'lgan xodimda "xizmat vazifasini vijdonan bajarish" mas'uliyati shakllanadi, bu esa korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan (YPX, migratsiya, tergov) sohalarda asosiy tiyib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Davlatni o'z posboniga bo'lgan g'amxorligiga javoban xodimning sadoqati- bu haqiqiy vatanparvar komil insondir. Xodim o'z oilasi davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinganini his etsa (uy-joy, imtiyozlar), uning ma'naviy immuniteti mustahkamlanadi. Bu jarayonda vatanparvarlik "moddiy ehtiyojdan ustun turuvchi ma'naviy qadriyat" sifatida korrupsiyani butunlay inkor etadi. IIV tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tashkil etildi. Buning natijasida Endilikda vazirlikning har bir tarkibiy bo'linmasida korrupsion xavf-xatarlarni oldindan aniqlaydigan (shaxsiy xavfsizlik) va ularni tahlil qiladigan maxsus xizmat mavjud. Bu "kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish" tamoyili asosida ishlaydi. Buning natijasida ichki ishlar organ xodimlarida ushbu kasallikka chalinganlarni tizmdan tozalashga va yurt tinchligi va farovonligini mustaxkamlovchi baqquvvat zabardast xodimlarni toboro shakllantirildi va Mustaqil O'zbekistonimizni rivojlanishiga juda katta zamin yaratmoqda.

Xalqaro miqyosda korrupsiyaga yagona huquqiy ta'rif berish murakkab bo'lsa-da, yetakchi tashkilotlar va davlatlar uni turlicha, lekin o'zaro bog'liq jihatlar bilan talqin qiladi, jumladan AQSh qonunchiligida⁷ korrupsiya nafaqat pora olish, balki "biznesda nohaq ustunlikka erishish uchun mansabdor shaxsni og'dirish" sifatida ko'riladi. Bu yerda lobbizm (manfaatlarni qonuniy himoya qilish) va korrupsiya o'rtasidagi chegara juda qat'iy belgilangan. Singapur va Skandinaviya davlatlarida korrupsiya nafaqat pul olish, balki axloqiy me'yorlarning buzilishi deb hisoblanadi. Hatto kichik sovg'alar ham (masalan, \$20-50 qiymatidagi) korrupsiya sifatida baholanishi va mansabdor shaxsning karyerasiga nuqta qo'yishiga sabab bo'ladi. Ularda "davlatning ishonchini suiiste'mol qilish" tushunchasi huquqiy jazodan ko'ra kuchliroq ijtimoiy nafratga sabab bo'ladi.

Xulosa

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, IIO xodimi uchun vatanparvarlik shunchaki ma'naviy sifat emas, balki uning professional yaroqliligini belgilovchi strategik kompetensiyadir. Xodimning kasbiy tayyorgarligi qanchalik yuqori bo'lmasin, unda vatanparvarlik hissi shakllanmagan bo'lsa, u krizis holatlarida va moddiy vasvasalar qarshisida zaiflik namoyon etadi. Shuning uchun vatanparvarlik tarbiyasi — xizmat intizomining ajralmas qismidir. Xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda akmeologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki Vatanparvarlik tarbiyasi faqat "yuqoridan pastga" buyruq berish shaklida emas, balki har bir xodimning o'z xizmat vazifasini "Vatan taqdiri uchun mas'uliyat" deb anglash darajasida shakllanishi lozim. Bunda "Ona vatanga sadoqat bilan xizmat qilish — oliy sharaf" g'oyasi xodimning hayotiy e'tiqodiga aylanishi zarur. Globallashuv va axborot

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenining "Ichki ishlar organlari kadrlar bilan ishlash va xodimlar xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2996-sonli qaror/ 2017-yil 29-noyabrda ishlab chiqilgan.

⁷ "Foreign Corrupt Practices Act" Amerika Qo'shma Shtatlari qonuni/ 1977-yilda qabul qilingan.

xurujlari sharoitida vatanparvarlik tarbiyasi xodimda destruktiv g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitet hosil qiladi va IIO xodimlari orasida mafkuraviy profilaktika ishlarini tizimli yo'lga qo'yish, ularning dunyoqarashini boyitish — korrupsiya, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish va loqaydlik kabi salbiy illatlarga qarshi eng kuchli profilaktik choradir. Vatanparvarlik faqat bayroqni o'pish yoki balandparvoz gaplar gapirish emas. Haqiqiy vatanparvarlik — bu o'z ishini halol bajarish, pora bermaslik va olmaslik, hamda davlatning har bir tiyini o'z farzandlarining kelajagi kabi asrashdir. Korrupsiya bor joyda vatanparvarlik faqat niqob bo'lib xizmat qiladi. : IIOda korrupsiyaga qarshi kurashish faqat jazolash (shaxsiy xavfsizlik xizmati) bilan emas, balki "Vatanparvarlik targ'iboti" orqali amalga oshirilishi eng samarali usuldan biri hisoblanadi va bu barcha uchun muhim vazifa bo'lishi kerak. Vatanparvar xodim korrupsiyaga oid taklifni o'z sha'niga haqorat deb qabul qiladi. Bu darajaga yetish uchun IIO o'quv muassasalarida (Akademiya, litseylar) ta'lim tizimi "Vatanparvarlik — hayot-mamot masalasi" tamoyili asosida qurilgan. : Ichki ishlar organlarida vatanparvarlik — bu korrupsiyaga qarshi kurashning shunchaki vositasi emas, balki uning yakuniy yechimidir. Ma'naviy boy, vatanparvar xodim — barqaror davlatning eng mustahkam ustunidir. Prezident ta'kidlaganidek, "Xalq ichki ishlar organlaridan rozi bo'lishi kerak". Vatanparvar xodim o'zini xalqning hokimi emas, xizmatchisi deb biladi, bu esa poraxo'rlikning ildizini qirqadi. Vatanparvarlik ruhidagi tarbiya — bu cheksiz jarayon bo'lib, u xodimning butun xizmat faoliyati davomida doimiy monitoring va innovatsion metodlar (interaktiv treninglar, vatanparvarlik forumlari, virtual muzeylar) orqali boyitib borilishi kerak. Ichki ishlar organlarida vatanparvarlik tarbiyasi — bu tizimning samaradorligini oshirish, xalqning ishonchini qozonish va milliy xavfsizlikni ta'minlashning eng arzon, ammo eng qudratli instrumentidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy darajasini oshirish va xizmat madaniyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5039-sonli qarori/ II-bobi
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407 sonli qonuning VI-bobi/ 27-moddasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-sonli qarori bilan tasdiqlangan ******"Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi"/ II-bob/
- 4.O'zbekiston Respublikasi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni 28.01.2022.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev"Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" /I-bob/ 11-15betlar/ 2020-yil O'ZBEKNEW nashriyoti.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidenining "Ichki ishlar organlari kadrlar bilan ishlash va xodimlar xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2996-sonli qaror/ 2017-yil 29-noyabrda ishlab chiqilgan.
- 7."Foreign Corrupt Practices Act" Amerika Qo'shma Shtatlari qonuni/ 1977-yilda qabul qilingan